

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### ARBA'IN VA ARABA'INNAVISLIK AN'ANASI (ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARI ASOSIDA)

*J. Saidolimov*

*FarDU, adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi*

*Odiljonova Odinaxon Umidjon qizi*

*FarDu, filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada arba'in san'ati tarixi va arba'innavislik an'analari, rivojlanishi haqida qarashlar mavjud. Alisher Navoiy tomonidan Jomiyning "Chihil hadis" ini erkin tarjima usulida o'zining "Arba'in" nomli asarini vujudga kelishi haqida ma'lumotlar berilgan. Navoiyning nima sababdan ushbu asarning yaratilishi haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar :** Araba'in, arba'innavislik, hadislar, erkin tarjima, komil inson

**Аннотация:** В статье изложены взгляды на историю арбаинского искусства, традиции и развитие арбаинвизма. Алишер Навои сообщил о создании своего произведения под названием «Арбаин» в методе вольного перевода «Чихил хадис» Джами. Есть предположения, почему Навои создал это произведение.

**Ключевые слова:** Арбаин, арабская письменность, хадисы, вольный перевод, совершенный человек.

**Abstract:** This article contains views on the history of Arba'in art and the traditions and development of Arba'innavism. Alisher Navoi gave information about the creation of his work called "Arba'in" in the method of free translation of Jami's "Chihil Hadith". There are ideas about why Navoi created this work.

**Key words:** Araba'in, Arabic writing, hadiths, free translation, perfect human.

„Arba'in” atamasi arabcha „arba” so'zidan olingan bo'lib, „40” degan ma'noni anglatadi. Arabinnavislik esa payg'ambarimiz tomonidan aytilgan 40 ta sahih hadisni olib, uni qit'a yoki ruboiy tarzida bayon qilishdir.

Arba'innavislik dastlab arab adabiyotida milodiy VII asrda yuzaga keladi. Dastlab arab'in yozgan shaxs sifatida Abdulloh ibn Muborak keltiriladi.<sup>1</sup> Arab'innavislik bo'yicha arab adabiyotini boyitgan shaxslar sirasiga A.Sulamiy hamda G'azoliylarni ham qo'shishimiz darkor. Sulamiy „Arba'ina fit -tasavvuf ” asari orqali tasavvuf mavzusini, G'azoliyning esa „Kitob -ul adl” asari bilan e'tiqod mavzusini yoritib beradilar. Bundan tashqari Nasafiy asli turkiy bo'lishiga qaramay arab tilida „Arba'in” asarini yozadi. Keyinchalik arba'innavislik forsiy hamda turkiy adabiyotda ham anchayin keng tarqalgan. Bunga misol qilib, Koshifiyning „Ar-risolat ul-aliya fi ahodis un -

nabiya” , Jomiyning „Chihil hadis” ini , Shayx ibn Nuriddin Puroniyning asarini hamda Navoiyning „Arba’in” , Muhammadqul Muhammadrasul yaratgan namunalarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Navoiy ustoziga buyuk

hurmatining ifodasi sifatida 1481 -yilda “Chihil hadis”ni o'zbek tiliga

o‘girdi. O‘zi qattiq amal qilgan hayotiy g‘oyasiga sodiq qolgan holda

bu asarning ham debochasida o‘z turkiy - o‘zbek ulusini odamiy

yashamoqlik uchun zaruriy axloqiy pand - nasihatlardan fayz

olishlarini maqsad qilganini aytib o‘tdi. Bu qirq hadisda Allohni,

uning insonlarga ato etgan cheksiz ne‘matlarini anglash, qadrlash,

eslash va ularni komil hayot andozalariga aylantirishga chaqirdi.

Navoiy bunda ham har bir ruboiy tarjimasini yuksak original asar

darajasiga ko‘tardi, hikmatlarga kuchli ifodaviylik bag‘ishladi.<sup>1</sup>

„Arab’in”ning kirish qismi Allohga hamd bilan boshlanadi:

Hamd angakim kalomi xayrmaaol

Qildi elga rasulidin irsol.

Ul rasuleki ham kalomi fasix

Elga tegurdi ham hadisi sahih <sup>2</sup>

Navoiy o‘ziga Jomiyni ustoz deb bilgan. Navoiy 1476–1477–yillarda Jomiyni o‘ziga pir qilib oladi va uning hayoti oxirigacha oralardagi samimiy do‘stlikka sadoqatini saqlagan<sup>3</sup>. Aynan shu asarda ham Jomiyni o‘ziga deb oladi:

Ul safo ahli pok farjomi

Pokfarjomu pokfar Jomiy

Qiblavu ustodi pir manga<sup>4</sup> .

Bundan tashqari Navoiy Islom olamidagi buyuk hadisshunos bobolarimiz Imom al-Buxoriy va Imom Muslimga qisqacha vasf va ehtirom ko‘rstib quyidagi misrani yozadi:

Kim yana tuhfaye ayon qildi

Tuhfa yo‘q , turfaye bayon qildi

O‘qig‘onda Buxoriy-u Muslim

Qirq so‘z barcha shubhadin solim<sup>5</sup>

Navoiy nima uchun bu asarni turkiy tilda talqin qiladi? Navoiy aynan tarjima qilibgina qolmay, balki, bu asarni yanada kengroq ochib beradi:

Foriydonlar aylabon idrok

Oriy erdi bu nafdin atrok

Istadimki, bu xalq ham bori

Bo‘lmaq aylar bu nafdin oriy<sup>6</sup>

Ya'nikim ushbu misra orqali Navoiy forsiylar asarni tushunib, undan qanday o'ziga ma'nan naf olgan bo'lsa, turkiy zabonlar ham bu asarni o'qib o'ziga naf olsin deydi. Darhaqiqat, Navoiy ushbu asarni har bir o'quvchi mos tarzda qaytadan yaratadi:

Muddao chun bori savob erdi

Har duo qilsa, mustajob erdi

Bir-iki kuni ehtirom ettim

Kuz tutardim burun tamom ettim

Navoiy ma'nan yetuk shaxs. Haqiqiy komil inson, ushbu asari orqali o'ziga moddiy tarafdan o'ziga hech narsa so'ramaydi. Aksincha, boqiy dunyosi uchun savob ilinjida bitiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu araba'innavislik an'anasini Alisher Navoiy yuksak darajada yetkazdi. Alisher Navoiy ustoz Jomiy tomonidan yaratilgan "Chihil hadis" ini erkin tarjima usulida ya'ni, aynan Jomiy yaratgan asarni forsiydan turkiyga tarjima qilmadi. Aksincha, unga o'ziga xos o'zgartirishlar kiritib ushbu asarni boyishiga katta hissa qo'shgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.G. ofurov, O. M. o' minov, N. Qambarov. - Toshkent:
2. Tafakkur-Bo'stoni, 2012
3. 2 Alisher Navoiy "Arbain" asari
4. 3 P. Shamsiev. Ulug' do'stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to'plam). Toshkent, «Fan», 1966